

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA ANVAR OBIDJON IJODIY NA'MUNALARINI O'RGANISHNING AMALIY AHAMIYATI

Muxlisaxon Abdujalilova

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Hamidova Ruxshona Rustamjon qizi

Qo'qon davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinflarning o'qish darslari mohiyati, maqsad va vazifalariga to'xtalib o'tiladi. O'qish darslarida Anvar Obidjonning ijodiy na'munalaridan foydalanishning ta'limiy tarbiyaviy ahamiyati va maktab davridagi yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdagi o'rni yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *O'qish darsi maqsadi, ona tabiat, yil fasllari, xalq og'zaki ijodi, mehnatga muhabbat, do'stlik, vatanparvarlik.*

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "Mustaqillikka erishibmizki, bizning ezgu niyatimiz - kelajagi buyuk va erkin jamiyat qurish. Bizning strategiyamiz sog'lom avlod tarbiyasiga tayanadi va uni rivojlantirishga qaratilgan", - degan gapni o'zining ko'plab ma'ruzalari, nutqlari, yosh avlod bilan o'tkazilgan suhbatlarda ko'p bora ta'kidlab o'tgan edilar. Ha, marhum prezidentimiz orzu qilganidek yosh avlodni komil insonlar qilib tarbiyalashda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lgan bolalar adabiyotining, ya'ni o'qish darslarining ham ahamiyati kattadir. Bolalar yozuvchilarining turli xil janrdagi asarlarini o'rganish orqali boshlang'ich sinf o'qish darslari o'z oldiga kelajak avlodni jismonan baquvvat, ruhan pok, fikran sog'lom, iymon-e'tiqodi butun, bilimi, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tarbiyalashdek katta va murakkab vazifani qo'yganligi bilan ajralib turadi.

O'quvchi matnni to'g'ri, tez, tushunib o'qish, mazmunini o'zlashtirish bilan ilk bor o'qish darslarida yuzlashadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standarti (DTS) talablari bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv-biluv, ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi.

Shu maqsadda „O'qish kitobi" darsliklariga ona tabiat, atrofimizni o'rab turgan olam, Vatanimiz tarixi va bugungi qiyofasi, kattalar va bolalar hayoti, mehnatsevarlik, istiqloq va milliy-ma'naviy qadriyatlar, xalqlar do'stligi va tinchlik kabi turli mavzular bo'yicha atroflicha tushunchalar berishga mo'ljallangan badiiy, axloqiy-ta'limiy, ilmiy-ommabop asarlar kiritilgan.

O'qish darslari savod o'rgatish davrida o'quvchilarni bo'g'in, so'z va gaplar bilan tanishtirish va ularni o'qish, rasmlar asosida hikoya qilish tarzida uyushtirilsa, o'qish texnikasi egallangandan so'ng o'qish muayyan mavzular bo'yicha tanlangan badiiy, ilmiy-ommabop matnlar yuzasidan olib boriladi.

Boshlang'ich sinf „O'qish kitobi“ darsliklariga kiritilgan muayyan mavzular o'quvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirishi, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida to'g'ri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi. Shunga ko'ra, o'qish darslarining yetakchi xususiyati o'quvchilarning savodxonligini ta'minlash bilan birga, o'quvchilarni milliy mafkura asosida yuksak axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga qaratiladi.

O'qish darslari uchun tanlangan mavzular o'quvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar bo'yicha ham bilim va tarbiya berishni ko'zda tutadi. Bular ichida istiqloq, vatan, ma'naviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi. Ulardan ko'zlangan maqsad o'zlikni anglash, istiqloq, vatan va tabiat bilan bog'liq tuyg'ularni uyg'otishdir.

Vatanparvarlik, atrofimizdagi olam, mehnatsevarlik kabi mavzular o'qish darsliklaridagi keng qamrovli mavzulardan bo'lib, bolalar yozuvchisi Anvar Obijon ham ijodiy faoliyatida ushbu mavzularga namunalar uchrashini kuzatamiz. Jumladan, 1-sinf „O'qish kitobi“dagi „Ko'klam-yashnaydi olam“ bo'limiga kiritilgan „Berkinmashoq“ she'ri, „Ilm-aql chirog'i“ bo'limidan „Yahshi niyat“ she'ri, 2-sinf „O'qish kitobi“dagi „Ona yurtim-oltin beshigim“ bo'limidagi „O'zbekistonim“ she'ri, „Mehnat baxt keltirar“ bo'limi „Odam bo'laman“ she'ri „Kumush qish-misoli oqqush“ bo'limi „Qorqiz“ she'ri kabi asarlar misolida atroflicha tahlilga tortiladi.

Masalan, 1-sinf „O'qish kitobi“dagi „Ko'klam-yashnaydi olam“ bo'limiga kiritilgan „Berkinmashoq“ she'rini tahlil qilamiz:

Birgalashib uch o'rtoq-

Men, Aziza va Qo'shoq

Keng lolazor qo'ynida

O'ynardik berkinmashoq Berkinmoqchi bo'lsam men,

Har lola imlab sekin,

Deydi: „Kelaqol o'g'lon,

Bizning makonga bekin“.

Ushbu she'r orqali Anvar Obidjon 1-sinf o'quvchilari uchun sodda tushunchalar asosida, berkinmashoq o'yinidan foydalanib, tabiatga munosabat, bahor faslining kirib kelganligi, tabiat uyg'onganligi, lola gullarining ochilganligi va tabiatni sevish kabi fikrlarni uyg'otishga harakat qilganligini ko'rishimiz mumkin.

Anvar Obidjonning 2-sinf “O‘qish kitobi”dagi “Ona yurtim-oltin beshigim” bo‘limidagi “O‘zbekistonim” she‘rini ko‘rib chiqamiz.

Aziz o‘lkam, o‘zing ko‘rkam,
Chinorlaring bizdek o‘ktam.
Tosh ham gullar tuprog‘ingda,
Mehrining qaynar bulog‘ingda.
Qo‘li ochiq bog‘laring ko‘p,
G‘aznaga kon tog‘laring ko‘p.
Yashnamoqda qishloq, shahring,
Yaxshilikka to‘liq bag‘ring...

Yuqoridagi ushbu she‘rda shoir mustaqillikni mustahkamlash, vatanni sevish, uning go‘zalligi, tabiiy boyliklari va tabiat manzaralarini chiroyli satrlar orqali tasvirlab bergan. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘zlikni anglash, istiqloq, vatan va tabiat bilan bog‘liq tuyg‘ularni uyg‘otishdir.

...Tag‘in o‘ylab ko‘raman,
Hammasi ham yaxshi ish.
Faqat yalqov bo‘lmayman,
Hecham tortmang siz tashvish.
Men... odam bo‘laman, dada!
- Balli, azamat!

“Mehnat baxt keltirar” bo‘limidagi “Odam bo‘laman” she‘ri ota va bola bilan bo‘lib o‘tgan suhbatga asoslanadi. Unda bola turli hil kasblar egallash orzusida ekanligi va buni dadasiga aytib berish jarayoni aks ettiriladi. Bola dastlab shafyor bo‘lmoqchi ekanligini, keyin esa fazogirlikka qiziqishini, futbolchi, doktorlik kasbini egallashi biroz hajv ostiga olingan. Suhbat yakunida bola yalqov bo‘lmasligi, odam bo‘lishligi xulosa o‘rnida berib o‘tilgan. Bu esa bolalarni kasblarga muhabbatini oshiradi.

O‘qituvchining o‘g‘itlari
Ey o‘quvchi, bilki, har so‘z
Nondak aziz, nondak uvol.
Til boyligini bir bog‘ desak,
Har bitta so‘z – bitta nihol ...Ey o‘g‘il-qiz, obro‘yingni
Baland tutmoq qo‘lingdadir.
Sening olamdagi narxing
Vatan, millat, tilingdadir

3-sinf O‘qish kitobidagi “Saxovatli kuz” bo‘limidagi “O‘qituvchining o‘g‘itlari” she‘riga shoir ona tilimizning naqadar buyukligi va boyligini ko‘rsatishga harakat qilib, har bir so‘zni niholga qiyoslagan holda so‘zlardan oqilona foydalanishga

chaqiradi. She'rda shoir insonning qadri vatani, millati va tilida ekanligini o'quvchilarga ushbu she'r orqali singdiradi.

Anvar Obidjonning zavq, ilhom va muhabbat bilan yozilgan asarlari bir yo'la hamma vazifani vijdonan ado etadi: bu she'rlar ham quvnoq do'st, ham jiddiy tarbiyachi. Uning she'rlarida g'alati, yoqimli hazil-mutoyiba, yashirin achinish, kulib yig'lash, muntazam qat'iyatlilik, sirli iboralar, kutilmagan tashbehlar orqali har qanday kitobxonni o'ziga rom qiladigan qudrat bor.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, o'qish darslaridagi shoirning ijodiy na'munalarida real hayotda uchraydigan voqealarga ijtimoiy masalar yuklanadi. Yaratilgan hajviylik asosida kishilar munosabatida uchraydigan turli illatlar bilan birga umumxalqqa tegishli bo'lgan katta ijtimoiy masalalar kutilmagan detallar, holatlar orqali ochib berilgan. Yaratilgan ijtimoiy obrazlar, ilgari surilgan g'oyalar ijtimoiy hayotning asosi sifatida etirofga loyiq. Bu esa Anvar Obidjon hajviyalarining ijtimoiy mohiyatini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A. "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" Toshkent. "Sharq yulduzi" 2009 yil №3
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" Toshkent. "Ma'naviyat" 2008 yil
3. Nazarov B "Anvar Obidjon she'rlarida poetik go'zallik" www.saviya.uz
4. Jumaboyev M "Bolalar adabiyoti" Toshkent "O'qituvchi" 2013 yil
5. Shomurotov, S. S. O. (2021). The Need for Formation of Knowledge on the Effective Use of Water Resources in Young People in the Process of Globalization. (in the Example of the Aral Sea). International Journal of Human Computing Studies, 3(2), 89-91.
6. SHOMUROTOV, S. S. O. (2021, April). FIRST STEPS FOR MODERNIZATION OF WATER FARMING IN THE REPUBLIC: ACHIEVEMENTS AND CHALLENGES. In Euro-Asia Conferences (Vol. 4, No. 1, pp. 152-155).
7. Shomurotov, S. S. O. (2021, February). Some Environmental Problems Related To Land And Water Resources In Uzbekistan. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 39-41).
8. SHOMUROTOV, S. S. O. Construction and Changes in Canals and Pumping Stations in Uzbekistan. JournalNX, 7(1), 262-266.



9. Шомуротов, Ш. (2021). Историческое значение реформ, осуществляемых в водной системе Узбекистана. Общество и инновации, 2(3/S), 458-465.

10. Шомуротов, Ш. (2021). Ўзбекистон сув хўжалиги тизимида амалга оширилган ислохотларнинг тарихий аҳамияти. Общество и инновации, 2(3/S), 458-465.

11. Shomurotov, S. S. O. (2022). O 'Zbekistonda Suvdan Foydalanuvchilar Uyushmalarining Tashkil Qilinishi Va Faoliyatida Yuzaga Kelayotgan Muammolari. Miasto Przyszłości, 29, 216-220.

12. Shomurotov, S. S. O. (2022). Measures Taken to Develop the Irrigation System in the Country. Miasto Przyszłości, 29, 207-209.